



PROTECTED AREAS IN WILDERNESS LANDSCAPES AND ENSURING ECOLOGICAL SECURITY IN UZBEKISTAN

Mansur Egamberdiyevich Djurayev

PhD, associate professor

Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan

Charos T. Kurbanova

Student

Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ecological risk, nature protection, landscape, natural environment, secondary resource, geotism, landscape types, ecological situation, land development, environmental education.

Received: 15.01.24

Accepted: 17.01.24

Published: 19.01.24

Abstract: Protecting human life from various environmental hazards has become one of the most important issues in recent times. At this point, it is enough to remember the words of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, "Living with people's pains and concerns is the highest criterion of humanity." Technological and environmental crises can be included in the causes of ecological risk. Environmental risk is manifested in the possibility of destruction of the environment in which humans, plants and animals live as a result of the uncontrolled development of economic sectors, the obsolescence of technology and equipment, the occurrence of natural and anthropogenic disasters and catastrophes, as a result of which living organisms are not able to adapt to the conditions of their existence. Iadi The main directions of solving environmental problems are reflected in the State Committee for Nature Protection, the Cabinet of Ministers, various non-governmental organizations, and the national action plans and strategies for environmental protection, hygiene, and preservation of biological diversity adopted by the state. Samples of natural landscapes and landscape elements, such as scenery, landforms, natural monuments, some rare

species and animals, are preserved in reserves in each natural region and altitude region.

CHO'L- VOHA LANDSHAFTLARIDA MUHOFAZA ETILADIGAN HUDDUDLAR VA O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH

Mansur Egamberdiyevich Djurayev

PhD, dotsent

Guliston Davlat universiteti

Guliston, O'zbekiston

Charos T. Qurbonova

Talaba

Guliston Davlat universiteti

Guliston, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ekologik xavf-xatar, tabiat muhofazasi, landshaft, tabiiy muhit, ikkilamchi resurs, geotizm, landsahft turlari, ekologik vaziyat, yerlarni o'zlashtirish, ekologik ta'lif.

Annotatsiya: Inson hayotini turli ekologik xavflardan asrash keyingi vaqlarda eng muhim masalalardan bo'lib qoldi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir», degan so'zlarini eslash kifoya. Ekologik xavf-xatarning sabablariga texnologik va ekologik inqirozlarni kiritish mumkin. Ekologik xavf iqtisodiyot tarmoqlarining nazoratsiz rivojlanishi, texnologiya va texnikaning eskirib orqada qolishi, tabiiy va antropogen halokat va falokatlarning yuz berishi natijasida inson, o'simlik hamda hayvonot olami yashaydigan muhitning buzilish ehtimolligi, buning oqibatida tirik organizmlarning mavjud bo'lish sharoitlariga moslashishi buzulishida namoyon bo'ladi. Ekologik muammolarni hal etishning asosiy yo'nalishlari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Vazirlar mahkamasи, turli nodavlat tashkilotlari hamda davlat tomonidan qabul qilingan Atrof-muhitni muhofazasi, gigienik, biologik xilmassallikni saqlash bo'yicha milliy harakat rejali va strategiyalarida o'z aksini topgan. Qo'riqxonalarda har bir tabiiy mintaqqa, balandlik mintaqasida tabiiy landshaftlar namunasi va landshaft elementlari, masalan, manzara, relyef shakllari, tabiat yodgorliklari, ayrim noyob turlar va hayvonlar saqlanib qolnadi.

ОХРАНЯЕМЫЕ ТЕРРИТОРИИ В ДИКИХ ЛАНДШАФТАХ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Мансур Эгамбердиевич Джураев

PhD, доцент

Гулистанский государственный университет

Гулистан, Узбекистан

Чарос Т. Курбанова

Студент

Гулистанский государственный университет

Гулистан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Экологический риск, охрана природы, ландшафт, природная среда, вторичный ресурс, геотизм, типы ландшафтов, экологическая ситуация, освоение земель, экологическое образование.

Аннотация: Защита жизни человека от различных опасностей окружающей среды стала в последнее время одной из важнейших проблем. Здесь достаточно вспомнить слова Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева: «Жить болью и заботами людей – высший критерий человечности». К причинам экологического риска можно отнести технологические и экологические кризисы. Экологический риск проявляется в возможности разрушения окружающей среды, в которой живут люди, растения и животные, в результате бесконтрольного развития отраслей экономики, устаревания техники и оборудования, возникновения природных и техногенных катастроф и катастроф. результат чего живые организмы не способны адаптироваться к условиям своего существования. Основные направления решения экологических проблем отражены в Госкомприроде, Кабинете Министров, различных неправительственных организациях, а также принятых государством национальных планах действий и стратегиях по охране окружающей среды, гигиене и сохранению биологического разнообразия. Образцы природных ландшафтов и элементы ландшафта, такие как пейзажи, формы рельефа, памятники природы, некоторые редкие виды и животные, сохраняются в заповедниках в каждом природном регионе и высотном районе.

KIRISH

Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalasi inson faoliyatining barcha jabhalarida hisobga olinishi zarur. Dastlab bu munosabat juda oddiy bo‘lgan, ya’ni inson tabiatga, o‘z navbatida, tabiat insonlarga me’yor doirasida ta’sir etib kelgan. Inson faoliyatining tabiatga ta’siri ortib borishi tufayli bu munosabat murakkab tus oldi. Natijada inson tabiatga qanchalar kuchli ta’sir etgan bo‘lsa, tabiat ham shunchalar aks ta’sir eta boshladи. Ayrim hududlarda tabiat o‘zi yaratgan mavjudotlar orasida eng ko‘p zararlarni insonlardan ko‘radi. Landshaftlarda komponentlarning beqarorlashuvi kuzatildi. O‘zini-o‘zi saqlash va tiklash xususiyatlari zaiflashdi, tabiiy muhit ifloslandi. Inson o‘z manfaatlari yo‘lida qilgan rejasiz harakatlari tufayli yaratilgan va yashash uchun noqulay bo‘lgan ekologik sharoitda faoliyat ko‘rsatishga majbur bo‘lmoqda. Natijada insonlarning sog‘ligi va insonlarning ish faoliyatiga salbiy ta’sir etayotgan mahalliy, mintaqaviy va dunyoviy ekologik inqirozli hududlar paydo bo‘ldi. Endilikda doimo tabiat imkoniyatlaridan ortiqcha narsalarni talab qilib kelgan inson tabiat bilan murosaga kelishga majbur ekanligini anglab yetdi. Bu muammolarni hal qilishda tabiiy geografiyaning bir necha tarmoqlari mavjud. Botanika-tabiat o‘simgilklarini, zoologiya hayvonot olamini, gidrologiya- yer osti va yer usti suvlarini, iqlimshunoslik- atmosferadagi jarayonlarni, geomorfologiya- relyefni, geologiya- tog‘ jinslarini, Yerning ichki va tashqi jarayonlarini, tuproqshunoslik- tuprog‘ini alohida o‘rgansa, tabiiy geografiya barcha tabiat komponentlari yaxlitligini o‘rganadi. Demak, tabiiy geografiya tabiatni, tabiiy muhitni yaxlit majmuali o‘rganish bilan bir qatorda, ulardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, qayta tiklash masalasini ham o‘rganadi

ASOSIY QISM

Landshaftshunoslik ham boshqa fanlar qatorida nazariy masalalar bilan birgalikda amaliy masalalarni hal etishga harakat qiladi va natijada yangi yo‘nalish, amaliy landshaftshunoslik yuzaga keladi. Amaliy landshaftshunoslik tadqiqotlarning asosiy mazmuni landshaft haqidagi ta’limotning asosiy nazariy qoida va usullarini xalq xo‘jaligiga taaluqli masalalarni yechishga tadbiq etish demakdir. Landshaft tadqiqotlarining natijalari yangi yerkarni o‘zlashtirishda, yo‘l transport qurulishi, shahar, qishloq, sanoat qurulishi va turli-tuman yirik inshootlar qurulishida, sog‘liqni saqlash va rekreatsiya, tabiat muhofazasi bilan bog‘liq ko‘pgina tadbirlarning ilmiy asosini yaratishda katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Madaniy landshaftlarni barpo qilish va landshaftlarni samarador qilish, amaliy landshaftshunoslikning bir qismidir.

Landshaft- bir xil geologik tuzulishi, bitta relyef turi, bir xil iqlimi hamda faqat shu landshaftga xos bo‘lgan o‘zaro bog‘liq kichik geotizimlar yig‘indisidan iborat genetik jihatdan bir butun geotizimdir. Landshaftlar joylardan, joylar urochishelardan, urochishelar esa fatsiyalar tizimidan iborat. [1]

Birgina O'zbekiston Respublikasining landshaftini ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda 34 xil landshaft turi mavjud. Masalan:

- tog'lik (baland tog'lar, o'rtacha baland tog'lar, past tog'lar) qismida serqor, serqoryoni, o'tloq dasht, o'rmon va siyrak o'rmonlar, quruq dasht, chalacho'l, cho'l, sho'rxok, to'qay, antropogen landshaft turi tarqalgan.
- tog' oldi qismida faqat chalacho'l, cho'l, antropogen landshaft turlari mavjud.
- tekislik qismida: tog' oralig'i botig'i, tabaqali, eol qismida cho'l, sho'rxok, antropogen,
- qoldiq tog'larda cho'l va antropogen
- allyuvial deltada cho'l, sho'rxok, to'qay, antropogen
- ko'llar atrofida cho'l, sho'rxok
- berk soylikda faqatgina sho'rxoklar mavjud
- dengiz atrofida cho'l, sho'rxok, to'qay landshafti tarkib topgan. [3]

Sirdaryo viloyati landshaftiga tavsif beradigan bo'lsak, avvalambor tabiat komponentlarining geografik tarqalishi, relyef shakllari, geologik va litologik tuzulishi qanday ekanligini bilib olishimiz kerak. Bu yerda tuproq tiplari va ularni xillarining tabaqlanishi tog' oldi prolyuvial-allyuvial tekisliklarda, berk botiqlarda, daryoning terrassalarida yaxshi ifodalangan. Viloyat hududining katta qismi o'tloqi-allyuvial, bo'z-o'tloq, och tusli bo'z, oddiy bo'z va to'q tusli bo'z tuproqlar bilan qoplangan. U o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, hosil bo'lishi yotqiziqlarga va gidrogeologik sharoitlarga bog'liq. Bu tuproq hosildor hisoblanadi. Kuchli sho'rlanmagan sizot suvlari sathi yer yuzasiga yaqin joylashgan bo'lib, chuqurligi 1-2 metrni, ba'zi joylarda 0,5 -1 metrni tashkil etadi.

Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan viloyat hududida olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, geosistemalarda antropogen ta'sir, ya'ni daryo oqimining sun'iy va energetik rejimga o'tishga mos ravishda ekologik zo'riqish yuzaga kelgan. Bu holat oxirgi 15-20 yilda sug'oriladigan yerkarning meliorativ holatiga salbiy ta'sir etmoqda. Hozirgi kunda avtomorf rejimda shakllangan tuproqlar yarimgidromorf va gidromorf tipga aylandi va asosiy maydonlarni turli darajada sho'rlangan tuproqlar egalladi. Bu esa, o'z navbatida sug'oriladigan yerlar mahsulorligini oshirishni ta'minlaydigan hamda agrolandshaftlarda ekologik muvozanatni saqlash va sho'r bosgan, kuchli degradatsiyaga uchragan maydonlarni kamaytirib, ulardagi jarayonlarni optimallashtirish kabi muammolarni oldinga suradi.[1]

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar belgilangan maqsadi va rejimiga qarab bir nechta toifalarga bo'linadi:

- davlat qo'riqxonalari
- majmua(landshaft) buyurtma qo'riqxonalari
- tabiat bog'lari

- davlat tabiat yodgorliklari
- ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko‘paytirish va tiklash uchun mo‘ljallangan hududlar
 - muhofaza etiladigan landshaftlar
 - ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo‘ljallangan hududlar. [3]

Birgina O‘zbekistondagi cho‘l- qum landshaftini misol qilib keltiradigan bo‘lsak, bu hududda Vardanza qo‘riqxonasi joylashgan. Ushbu qo‘riqxona Buxoro vohasida, Shofirkon shahri yaqinida tashkil topgan, harakatdagi qumlarni to‘xtatish maqsadida psammofitlarni ekish va o‘sirish natijasida daraxtzor tarkib topgan. Asosan qorasaksovul, qandim, Rixter cherkezi, yulg‘un tarqalgan. Hayvonlardan, asosan, dala quyon, tulki, shoqol; qushlardan: ko‘k kaptar, Misr kuykasi, oddiy tentakqush, oltin bo‘zdoq, ko‘k qarg‘a, qaldirg‘och, qirg‘ovul va ko‘plab sudralib yuruvchilar mavjud.[4]

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasida bir qator bir- birlari bilan bog‘liq bo‘lgan jumboqli masalalarini hal qilish lozim bo‘ladi. Birinchi galda ekologik monitoringni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega. O‘zbekistonda bu turdagি monitoring hozirda turli muassasalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda, lekin ularning ko‘lami va egallagan hududi hozirgi talabga mutlaqo javob bermaydi. Tuproqning sanoat va kimyoviy ashyolar bilan ifloslanishi (Respublika Bosh Gidromet xizmatiga yuklatilgan) faqat ayrim qishloq jamoalarini hududi bo‘yicha nazarat qilinadi. Bunda barcha viloyatlarning sug‘oriladigan yerlari nazarda tutilmagan, hech bo‘lmaganda har bir viloyat bo‘yicha talab olingan testli xo‘jaliklarning ma’lum maydonlari nazarda tutilganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Faqat shundagina respublika hududi bo‘yicha sug‘orma yerlarning texnogen ifloslanishi bo‘yicha tegishli xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi. Xuddi shunday ahvol suv havzalarining ifloslanishi, atmosfera havosining chiqindilar bilan to‘yinishi va boshqa sohalarda ham mavjud, ularning belgilangan me’yorda bo‘lishi tabiiy muhit bo‘yicha zarur bo‘lgan monitoring axborotlarini olish va mavjud ekologik vaziyat to‘g‘risida aniq xulosalar chiqarishga imkon beradi.[2]

Respublikamizda tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha turli xil chora tadbirlar o‘tkazilgan va bular davom etib kelmoqda: Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida 1992-yil 9-dekabr. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida 2004-yil 3-dekabr va shunga o‘xshash qonunlar kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qaroriga ko‘ra “Tabiatni muhofaza qilish jamg‘armalari to‘g‘risida” 1993-yil 24-may, 1999-2005-yillarda O‘zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi 1999-yil 20-oktyabrdan ishlab chiqildi.

O‘zbekistonda ekologik ta’lim amalda faqatgina oliy o‘quv yurtlaridagi oriy qilingan. Biroq, unga ajratilgan arzimasgina soatlar mobaynida talabalarga ekologik dunyoqarashni shakllantirish va kerakli ko‘nikmalarni singdirish ilojsiz. U ham ko‘p hollarda boshqa fanlar

tarkibiga tirkalgan bo‘lib, u aksariyat hollarda tayanch mutaxasislikka ega bo‘lmagan o‘qituvchilarga yuklatilgan. Agar bugungi talablar ertaga iqtisodiyot, boshqaruv tashkilotlarida faoliyat olib borishlari va tegishli qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol o‘ynashlari nazarda tutilsa, uning samarasi ham oydek ravshan.[2]

Ekologik ta’lim-tarbiyaning bosh maqsadi - aholining barcha qatlamlarida, jumladan, maktab o‘quvchilarida ulaming atrof-muhitga, jonajon tabiatimizga bo‘lgan ongli munosabatlarini to‘g‘ri shakllantirishdan iboratdir. Buning uchun, barcha aholi ekologiyaga oid umumta’lim davlat standartlari darajasida bilim egallashlari, yetarli ko‘nikma va malakaga, o‘zining ekotizimga dahldor ekanligini anglatuvchi dunyoqarashga ega bo‘lishi va buni ma’nan hamda ruhan his qilishi darkor

XULOSA

Mening fikrimcha, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha chiqarilgan barcha Oliy Majlis qonunlari, Prezident qarorlari va Vazirlar mahkamasining qarorlari, ko‘rsatmalari va boshqa me’yoriy hujjatlar o‘z vaqtida bajarilsa va ularga amal qilinsa, qonunlar va tabiatga hurmat bilan qaralsa oz bo‘lsa ham o‘zimiz va kelajagimiz uchun yaxshi sharoit yaratgan bo‘lar edik. Ekologik xavfsizlikni ta’minalash shuningdek, me’yoriy ko‘rsatkichlar, REM va boshqa qabul qilingan ma’lum andozalarga rioya qilishga ham bog‘liqdir. Sanoat, avtovoztransport chiqindilari eng kam xavfsiz ko‘rsatkichlarga qadar kamaygan bo‘lishi, ikkilamchi resurslar to‘liq qayta ishlanib ulardan foydali elementlar ajratib olinishi zarur. Eng muhimi, isrofgarchilikka chek qo‘yilib, tabiatdan ehtiyojga yarasha boyliklarni ajratib olib, chiqindilarni chiqarmaslik tamoyilida ish tutishga o‘tishdan iborat. Tabiatdan boyliklarni olishda “kim oshdi” tamoyilidan voz kechib uni boyitish, resurslarni qayta tiklash, kamayib borayotganlaridan ehtiyojkorlik bilan foydalanish, bu borada muqobil variantlar, ya’ni o‘rnini bosadigan boshqa resurslardan foydalanishga o‘tish kabi tamoyillarni barcha joylarda, hamma ishlab chiqarish korxonalarda qo‘llashga o‘tish tabiatni asrash, uni e’zozlash o‘z navbatida ekologik xavfsizlikni ta’minalashni kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.S.Zokirov Landshaftshunoslik asoslari Toshkent – 2010 «UNIVERSITET»
2. A.N.Xodjimatov, N.R.Alimqulov, Sh.A.Xolmurodov, M.E.Djurayev Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish Toshkent- 2020
3. Atlas. O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning tabiiy geografiysi. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi. Toshkent 2016
4. P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov O‘rta Osiyo tabiiy geografiysi Toshkent “O‘qituvchi”- 2002
5. M.E.Djurayev, Ch.T.Qurbanova Global ekologik muammolar: Yechimlar va takliflar tabiiy geografik nuqtai nazar Guliston 2023